

MADANIYAT VA SAN’AT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDAGI MENEJMENT MODELII

Zokirjonov Abbosbek Zokirjon o‘g‘li

Madaniyat va san’at menejmenti ta’lim yo‘nalishi magistri

abbosbekzokirjonov99@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21132714>

Annotatsiya. Mazkur maqolada madaniyat va san’at sohasini rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasi hamda rivojlangan mamlakatlarda qo‘llanilayotgan zamonaviy menejment modellari tahlil qilingan. Muallif Turkiya, Finlandiya va boshqa davlatlar misolida madaniyat muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish va san’at ta’limini takomillashtirish masalalarini yoritadi. Maqolada xorij tajribalarini milliy amaliyotga tatbiq etish, innovatsion yondashuvlardan foydalanish hamda madaniyat va san’at muassasalarining boshqaruv samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy xulosalar keltirilgan. Tadqiqot natijalari madaniyat va san’at menejmenti tizimini takomillashtirish, xalqaro tajribalarni o‘rganish va milliy madaniy merosni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi

Kalit so‘zlar: san’at menejmenti, madaniy siyosat, menejment modeli, madaniy muassasalar, san’at ta’limi, innovatsion yondashuvlar, auditoriyani rivojlantirish, milliy madaniyat, globallashtirish, madaniy boshqaruv.

Har bir millat o‘z milliy qadriyati, madaniyat va san’ati bilan ma’lum va mashhur bo‘ladi. Qaysidir davlatni ko‘z oldimizga keltirmaylik, uni milliy kiyimlariyu, san’at asarlari hamda madaniyati bilan ko‘z oldimizda gavdalantiramiz. Xususan, biz ham chet el xalqlari tasavvurida avvalo san’at va madaniyatimiz, milliyligimiz, musiqamiz bilan gavdalanamiz.

Bugungi yangi texnologiyalar kun sayin rivojlanayotgan yurtimizda madaniyat va san’at sohasiga ham alohida e’tibor qaratilyotgani barchamizga sir emas. Ma’lumki, ko‘plab innovatsion loyihalarni ishlab chiqib sohaga tadbiq etilyotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bugungi kunda chet el tajribalarini puxta o‘rgangan holda sohada qo‘llab, yuqori suratlarda rivojlantirish ishlari ham olib borilmoqda.

Bilamiz teatrlarimizga kiruvchilar ozchilikni tashkil etadi. Shuningdek, tomoshabinlar orasida asosan yoshi katta insonlarni uchratamiz. Yoshlarning qatnovi deyarli sezilmaydi. Nima uchun shunday? Nima teatrdagi qo‘yiladigan spektakllar faqat yoshi kattalar uchunmi? Yoxud yoshlarga qiziq bo‘lgan mavzular sahnada namoyish etilmaydimi? Aslo unday emas, teatrlarimizda aktyor va aktrisalari tomonidan juda qiziqarli va ibratli spektakllar namoyish etiladi. Mavzu doirasi ham yetti yoshdan

yetmish yoshgacha qiziq boʻlgan mavzuni namoyon etadi. Faqatgina teatrlar faoliyatini reklama qilish yetarli yoʻlga qoʻyilmagan. Misol uchun, Turkiya davlatida teatrlar faoliyati samaradorligi, aholini teatrga keng jalb qilish uchun har bir teatr oʻz repertuarini mamlakat boʻyicha reklama qiladi. Teatrlar hududlar boʻylab muntazam ravishda gastrollarga chiqishadi va spektakllar ijro etishadi. Mutasaddilar har bir teatr boʻyicha ish olib borishadi.

Teatrlarimizda yoshlarimizning qatnovlarini oshirishimiz, ularni koʻproq jalb etishimiz hamda teatrlarga boʻlgan qiziqishlarini orttirishimiz lozim. Zero, Maxmudxoʻja Behbudiy aytib oʻtganlaridek, - “Teatr bu ibratxonadir”. Aholini shuningdek, yoshlarimizning madaniyat va sanʼat sohasiga boʻlgan qarashlarini, sohaga boʻlgan qiziqishlarini yanada orttirish uchun yoshlikdan sanʼatga uygʻun holda taʼlim olishlarini taʼminlashimiz lozim. Chunonchi xuddi bizda mavjud boʻlgan musiqa va sanʼat maktablari kabi, Turkiyada ham sanʼatga ixtisoslashtirilgan maktablar mavjud va ular 8 yillik boʻlib, dars dasturlari maktab mutaxassisliklaridan iborat hayʼat tomonidan ishlab chiqiladi va Turkiya taʼlim Vazirligi bilan kelishiladi. Fanlarning tanlanishi va mazmuni maktab mutaxassislari kengashi tomonidan hal qilinadi. Musiqa va sanʼat sohasini tamomlagan oʻquvchi davlat standarti boʻyicha imtihon topshiradi. Keyingi bosqichga oʻtishi uchun toʻplagan bali asos boʻladi.

Xususan, davlat rahbarining “Madaniyat va sanʼat sohasini yanada rivojlantirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori ham oʻquvchi va talabalarning musiqiy bilim va koʻnikmalarini ularning qalbida milliy madaniyatga boʻlgan muhabbatini shakllantirish, yosh isteʼdodlarni aniqlash va qoʻllab quvvatlash qaratilgan chora-tadbirlar nazarda tutilgan.

Qarorga koʻra, musiqa fani uchun ajratilgan oʻquv soatlari doirasida “Hayotimga hamrohdir cholgʻu” shiori ostida cholgʻu ijrochiligi dars mashgʻulotlari yoʻlga qoʻyiladi. Shuningdek, 2022-2023-oʻquv yili davomida roʻyxatida keltirilgan milliy musiqa cholgʻularidan kamida bittasida kuy ijro etish koʻnikmalari oʻrgatiladi hamda ularning taʼlim toʻgʻrisidagi hujjati (shahodatnoma)ga tegishli qayd kiritiladi. 2023-2024-oʻquv yilidan boshlab esa, kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega boʻlish musiqa fani oʻqituvchilariga majburiy hisoblanadi. Albatta, mazkur qaror ijrosi toʻlaqonli taʼminlansa, oʻsib borayotgan yosh avlodda, musiqaga, milliyligimizga muhabbat kun sayin rivoj topib boradi desak adashmaymiz. Sababi, bizning xalqimizda qadimdan

musiqaga muhabbat, oshuvtalik jo‘sh urgan. Mohir sarkarda Sohibqiron Temur bobomiz ham hatto, janggi kirishda qo‘shinni ruhlantirishda shoshmaqomni eshittirishlari, jangga kirishishda nog‘oralar jo‘rligida jangovarlik ruhini olg‘a surganligiga tarix guvoh. So‘z mulkining sultoni hazrat Alisher Navoiy bobomiz ham musiqa ilmi va san‘ati ustasi bo‘lgan, asarlarida, musiqaning inson faoliyatidagi o‘rniga alohida e‘tibor qaratgan. Cholg‘ularda kuylar ijro etgan. Bundan ko‘rinadiki, musiqa ishtiyoqmadlik biz o‘zbek xalqining qonimizda bor. Qaror doirasida, bolalarni musiqiy asboblarni chalishga o‘rgatish, ularni milliy musiqa bo‘lgan muhabbat ruhida tarbiyalash g‘oyasi ilgari surilgan.

Ko‘pchilik insonlarda biror musiqa asbobini chalishga bo‘lgan qiziqish mavjud bo‘ladi. Biroq, inson musiqa chalishni xohlasayu, lekin notalarni o‘qishni bilmasa, nima qilishi kerak? Barcha musiqiy asarlarni eshitib yodlab olishning esa iloji yoq, lekin musiqa yozish uchun notalardan tashqari yana biror usul bormi? Bu kabi savollarga Finlandiya davlati antiqa yechim topishgan. Ushbu maqsadda, Finlandiya davlatida musiqani o‘rganish uslubi o‘ylab topilgan. Bu uslub rangli rasmlar orqali notalarni o‘rganish uslubidir. Rangli rasmlar orqali notalarni o‘rganish usulida, notalar o‘z ranggi va shakli bilan farq qiladi. Xususan, turli ranglardan foydalanish, rivojlanishda ehtiyoji bo‘lgan odamlar va bolalarga notalar orasidagi farqni yanada aniqroq farqlay olish imkonini beradi. Bu tufayli ko‘pchilik, musiqiy asarlarni ular notalarni odatiy uslubiyat orqali o‘rgangan bo‘lganlaridan ko‘ra tezroq ijro etadilar.

Avvaliga rangli rasmlardagi nota savodxonligi uslubi, aqliy faoliyatida nuqsonlari bo‘lgan odamlarni musiqa o‘rgatish uchun ishlab chiqilmoqda edi, lekin so‘nggi vaqtda ushbu uslubdan maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni ham musiqa o‘rgatish davomida foydalanish mumkinligi belgilab o‘tildi. Bolalar faqat musiqiy asarlarni ijro etibgina qolamay, balki, o‘z asarlarini yaratishdan ham quvonch oladilar. Yaponiyada ushbu uslubdan kunduzgi xizmat markazlariga qatnovchi keksalarga musiqani o‘rgatish jarayonida foydalishga e‘tibor bermochilar.

Rangli rasmlar orqali notalarni o‘rgatish uslubi bo‘yicha boshqa mamlakatlar bilan hamkorlik o‘rib bormoqda. Hozirgi paytda ushbu uslub bo‘yicha o‘qitish Estoniya, Italiya, Yaponiya, Iralndiya va Latviya kabi davlatlarda olib borilmoqda.

O‘quv qo‘llanmalari Finlandiyadan tashqari, Yaponiya, Estoniya, va Italiyada ham tayyorlangan va chop etilgan.

Yuqorida keltirib o‘tilgan o‘ziga xos uslubni nima uchun biz ham qo‘llab ko‘rmasligimiz kerak. Albatta bu kabi o‘ziga xos uslublardan foyadalinib ko‘rish kerak. Kezi kelsa uni yanada rivojlantirish yo‘llarini izlash lozim deb hisoblayman.

Bugungi globallashuv davrida chet el tajribalaridan foydalangan holda rivojlanish va hattoki o‘zimizning o‘ziga xos bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarimizni xorij mamlakatlarida ham targ‘ib etishimiz bugungi kunning zamon talabidir.

Bugungi globallashuv sharoitida madaniyat va san‘at muassasalari faqat badiiy ifoda vositasi emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va strategik soha sifatida ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda madaniyat va san‘atni boshqarish - “sanoat” darajasidagi kompleks menejment modeli sifatida yaratilgan. Bu model nafaqat ijodiy mahsulotni yaratish jarayonini, balki uning moliyaviy barqarorligini, raqamlashtirilgan tarqatilishini, auditoriya bilan samarali muloqotni, xalqaro integratsiyani ham o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ112-sonli qarori. www.lex.uz
2. “Xalq so‘zi” gazetasi // 2022-yil 15-aprel, N 78 (8140)
3. SHarifho‘jaev Yo. Abdulaev. Menejment. Darslik. T.: “O‘qituvchi” 2001
4. S.S.G‘ulomov. Menejment: Boshqaruv San‘ati nazariyasi va amaliyoti. T.- 2002. ToshDAU.
5. S.S.G‘ulomov “Zamonaviy menejment asoslari”, T., SHarq: 2002. TDIU.
6. A.Qo‘chqorov, X.Toshmatov, J.Isroilov. Menejment strategiyasi. “Iqtisodiyot va xuquq dunyosi” nashriyot uyi. T. 2003
7. Xodiev B.Yu., Qosimov M.S., Samadov A.N., Muxiddinova U.S. Kichik biznesni boshqarish. –T.: “O‘qituvchi”, 2003
8. Umarov A.S., Zunnunova U.G‘. San‘at menejmenti va marketingi va marketingi. Mahruzalar matni. –MRDI, 2005